

— «Tong yulduzi» gazetasini menga ustozim tanitganiar. Endilikda uning har bir sonini sinfdoshlarim bilan qoldirmay o'qib boryapmiz, —

deydi Sergeli tumanidagi 300-maktabning 3-«B» sinf o'quvchisi Avazbek Abdurahimov.



DUSHANBADAN


SAMARALI BO'LDI

Kuzatib borganingizdek, 22-23-aprel kunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning qo'shni Qozog'iston Respublikasiga rasmiy tashrifi o'tgan haftaning eng muhim voqealaridan biri bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari mazkur tashrifining har jihatdan samarali bo'lganini qayd etdilar.

OLIMPIADA BOSHLANADI

Toshkentda o'tkaziladigan 42-Xalqaro Mendeleyev Olimpiada-sida turli mamlakatlardan jami 105 nafar yosh kimyogar tengdoshlaringiz ishtirok etishadi. Ular uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, hatto Olimpiada madhiyasi ham yozilibdi.

Ular tahririyatimizda mehmon bo'lishdi.



2-bet:
Otkirjonning
bog'lari



3-bet:
Baxtli bo'lish
uchun yaxshi bo'



6-bet:
Gazetaga chiqmagan
she'rlar

ALIXONGA BRONZA MEDAL

Poytaxtda o'tgan shaxmat musobaqasi championlar sonini oshirdi. Unda samarqandlik Alixon Huseynova hakamlar bronza medalini taqdim etishdi. Qizlar o'rtasidagi bahsda sirdaryolik Sarvinoz Qurbanboyevani mamlakat championi deb topishdi. U sakkiz ochko to'plab, jahon championatiga yo'llanma oldi. 14 yoshli Jahongir Vohidov ham bo'sh kelmadi. U Osiyo championatiga boradigan bo'ldi.

SIZ SEVGAN KITOBLAR

Siz sevib o'qiydigan kitoblar nashriyot-matbaa ijodiy uylarida nashr qilinishini yaxshi bilsangiz kerak. Kuni kecha o'tkazilgan «Nashriyot-matbaa Respublika yarmarkasi»da qator nashriyotlarning mahsulotlari namoyish etildi. Ular orasidan «Bolalar ensiklopediyasi» ham joy olgan edi. Endilikda sizni qiziqtirgan turli ma'lumotlarni birgina shu ajoyib kitobdan topishingiz mumkin.



2008

Tong yulduzi
28-aprel

VOLG'ON YOZDIM

Men 9-sinfda o'qiyman. Yaqin kynlarda adabiyot darsidan «Kim bo'lsam ekan?» mavzusida insho yozdik. Hali tanlagan kasbimning tayini bo'lmagani uchun ham, inshoda shifokor bo'laman, deb yolg'on yozdim. Ustozimiz esa mening inshoimni rosa maqtadilar. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, sinfdoshim gazetada chiqqan maqolasini ko'tarib keldi. Unga havasim ortdi. Men ham gazetaga xat yozdim. Buni qarangki, mening maqolam, hatto kichkinagina she'rim ham chop etildi. Xullas, gazeta sabab dunyoga boshqacha ko'z bilan qaraydigan bo'ldim. Xatlarimni nazardan chetda qoldirmaganliklari bois, kasb tanlashda menga madad bo'lganliklari uchun tahririyat xodimlaridan minnatdorman.

Dilrabo JALOLOVA,
Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani



«Dota» – eng ko'p o'ynaladigan kompyuter o'yini bo'lgani uchun soatlab kompyuter xonada o'tiradigan tengdoshlarimizni shunday deyishar ekan. Bu haqda yozyotganimning sababi esa, bizning sinfdan ham dotachilar «yetishib chiqmoqda». Bir o'rtog'im a'lochi bo'lib,

hamma o'qituvchilarimiz uni maqtashar edi. Nima bo'ldi-yu, u darslarga yaxshi qatnashmay qo'ydi, xayoli ham parishon. Ishonasizmi, hatto dars paytida qo'lini partada o'ynatib, xuddi o'yin o'ynayotganday bo'ladi. Ruhshunoslarning aytishlaricha, kompyuter o'ynlari bola miyasi egallab olib, «o'ziga torta» ekan. Shuning uchun uning o'zgarib qolganini tushundik. Aytin-chi, tengdoshlar, siz bunday do'stlarimizga qanday yordam bergen bo'lar edingiz?

Osiyo JAYLOBOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi
o'quvchisi

KITOB YAQIN DO'ST

Dars tugagach, sinfimiz rahbari Bahodir Sharopov «Kitob bizning do'stimiz» mavzusida tadbir o'tkazdi. Unda sinfdoshlarim Rahmonberdi Olloshukurov «Gulliyerning sayohati» kitobini, Saidjon Qurbonniyozov «Ziyot botir» ertagini, Dilnura Jumaniyozova «Boychechak» she'riy to'plamini, Sherzod Boqiyev esa «Bo'g'irsoq» ertagini o'qiganligini aytishdi. Men esa Ne'mat Aminovning «Qassob boboning iti» hikoyasidagi qassob boboning insosizligi, o'zgalarni aldab yurishini gapirib berdim. Shundan so'ng, sinfimizdagi boshqa bolalar ham o'zlarining o'qigan kitoblarini so'zlab berishdi.

Ana shundan so'ng, sinfimiz rahbari bizlarni maktabimiz kutubxonasiga olib bordi.

– Kitob insонning eng yaqin do'stidir, – dedi Bahodir Sharopov.
– Uni yoshlikdan sevib o'qigan kishi hech qachon kam bo'lmaydi. Shunday ekan, sizlar ham kitobni o'zingizga do'st tutinglar.

Shundan so'ng, bizlar kutubxonadan o'zimizni qiziqitirgan turli kitoblarni olib, kelgusi tadbirgacha o'qib kelishga va'da berdik.

Jumaniyoz JABBOROV,
Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidagi
II-maktabning 5-«A» sinfi o'quvchisi

OTALAR MAJLISI

Yunusobod tumanidagi 302-maktabda «Otalar majlisi» bo'lib o'tdi. Yig'ilishda 800 nafarga yaqin otalar ishtirot etishdi. Yig'ilganlar farzand tarbiysi, ularni milliy urf-odatlar, sharqona ruhda tarbiyalashda oilaning o'rni muhim ekanligini ta'kidlashdi.

Shuningdek, tadbirda mahalla faollari, faxriy o'qituvchilar o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishdi.

– 2008-yilning «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi, respublikamiz bo'ylab «Otalar majlisi» tadbirlarini targ'ib qilinishi, kelajagimiz istiqboli bo'lgan farzandlarimiz tarbiyasida otalar mas'uliyatini oshirish, ayollarimizning zimmasidagi yukni ozroq bo'lsa-da, kamaytirishga yordam beradi, – deydi 45 yil maorif sohasida faoliyat yuritgan, ayni paytda 90 yoshni qarshi olgan mahallaning faxriysi Sirojiddin ota.

Mohigul SUVONOVA

Vogealar, xabarlar, ixtiolar

O'TKIRJONNING BOG'LARI



Aziz bolajonlar! Men sizlarga hikoya qilib bermoqchi bo'lgan voqe uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan. Saxylikda nomi yetti iqlimga yetgan bir boy qishloqdan o'tayotganda, ko'zi ko'cha eshigi oldida ko'chat ekayotgan chol bilan nabiraga tushibdi.

– Nima ekayapsiz, otaxon?

Otaxon tuproqli qo'llarini ishqalab:

– Yong'oq.

– Yong'oq? Bu juda uzoq vaqtida mevaga kiradi-ku. Undan ko'ra, erta yetiladigan nihollardan ekmaysizmi? Yoshingiz ham anchaga borib qolibdi.

Yo'lovchining gapini mag'zini chaqqan otaxon jilmayibdi.

– Nasib qilgan bo'lsa, yermiz. Qolaversa, bolalar, nabiralar, qo'ni-qo'shni, shu yo'ldan o'tib nasibasi qo'shilgan odamning o'zi tegsa, savobi bizga tegar.

Otaxonning javobidan mammun bo'lgan saxiy kishi unga bir xaltacha oltin beribdi.

Qariya kemtik tishlarini ko'rsatib:

– Taqsir, ko'chatimiz gullamay turib hosil berdi-ku, – degan ekan.

Balki bu shunchaki bir rivoyatdir. Biz sizga hikoya qilib bermoqchi bo'lgan yerga, ko'chatga mehri baland inson siz bilan bizning zamondoshimiz.

O'tkirjon Rasulov o'ttiz besh yoshlar atrofidagi bu yigit ko'p qavatlari uyi yonidagi bir parcha yerga ishlov berib, turli xil mevali daraxtlar, gullar o'tkazib, ko'rkam bog'ga aylantirdi. Nihollar o'sgan sayin uning ham yerga mehri ortib boraverdi. Bir kuni o'sha paytdagi mahalla oqsoqoli Sobir akaga dilini yordi.

– Ozgina yer bo'lsa, mevali-manzarali nihollarni ekip parvarishlasam.

Sobir aka ham xuddi shuni kutib turgandek, Sergeli 5-dahasidagi 108, 109, 110-ko'p qavatlari uylarning orqa tomoniga boshlab bordi. Salkam bir gektar yer qarosiz holatda, axlatxona bo'lib yotardi.

– Agar shu joyni obod qilaman, desangiz, men mahalla nomidan mutasaddi tashkilotlardan iltimos qilib ko'raman. O'ylab ko'ring.

O'tkirjon o'ylab o'tirmadi. Qo'ldan kelgancha harakat qilaman, deb va'da berib yubordi. Boshqa hamma ishlarni qo'yib, yerga yopishdi. Yer toshloq,

Yaxshidan bog' qolar...

o'ydim-chuqur. Katta qurilish payti qolib ketgan beton parchalarga to'la edi. O'tkirjon ko'nglidan, shoshib va'da beribman, degan xayol ko'p bora o'tdi. Ammo yigit so'zi, ortga qaytishga yo'l bermadi. Ayrim odamlar uning ustidan kulishdi ham. Boshini qiyiqcha bilan tang'ib olgan O'tkirjon mayda-chuyda gaplarga parvo qilmadi. Ertalabdan kechgacha tinmay ishlagani-ishlagan edi. Yerni tosh, temir-tersak, boshqa keraksiz narsalardan tozalash uchun hisobsiz chiqindi tashildi. Yer biroz epaqaga kelgach, mahalliy o'g'it bilan boyitdi. Atrofini o'rab chiqdidi.

Bugungi kunda gurkirab o'sayotgan sakkiz mingdan ziyod terak ko'chatining o'ziyoq kishi havasini uyg'otadi.

O'tkirjon bilan suhbat chog'ida: – Shartmidi shuncha mablag' ketkazib? – deb so'radim.

Hamsuhbatim yelkasini qisib, chirolyi jilmaydi.

– Ertal tongda boqqa kelaman. Tevarak-atrof osuda. Mayin esgan shabadada teraklar bargi bir ajib shitirlab shovir chiqaradi. O'sha paytda yayrab ketaman. Butun charchoqlar unutilib ketadi. Bundan tashqari, bu daraxtlar qanchadam-qancha kislordan yetkazib beradi.

Bir paytlar O'tkirjonning otasi Qurbonboy ota yerning ahvolini ko'rib, hayron qolgan edilar. Lekin o'g'lining cho'rtkesar, ushlagan joyini qo'yvomaslik fe'lini bilganlari uchun «Ko'z qo'rqaq, qo'l botir», degan gap bor. Astoydil mehnat qilsang, niyattingga albatta yetasan, deb duo qildilar.

O'tkirjon birgina bog' bilan chegaralanib qolmadni. Yurtimizni qaysi burchagida yaxshi ko'chat borligini eshitsa, olib kelishga harakat qildi. Chamalab ko'rsa, oxirgi besh yil mobaynida oltmish mingdan ziyod mevali va manzarali ko'chatlarni olib kelib tarqatibdi.

Tumandagi «Habibi», «O'zgarish» mahallalarini ko'kalamzorlashtirish uchun har doim beg'araz yordam berib kelmoqda.

Hali maktab yoshiga yetmagan farzandlari Javohir va Orzuxonlar har kuni bog'da, otasining yonida. Bolalar ish payti xalaqit berishmaydimi, deb so'radim.

– Xalaqit berishadi, chalg'itishadi. Ammo yonimda yurganlari yaxshi. Yoshlikdan yerga mehri tushsa, mehnatkash bo'lib o'sishadi. Agarda loqyd, ishyoqmas bo'lib o'sishsa, nima qillardim?

Bir gal qishloqqa borganimda, tong sahar chog'i terak barglarining shovullahiga quloq tutdim. Haqiqatan ham ajoyib bo'lar ekan. Qani endi hammamiz ham ana shu shovurdan zavqlanib, yo'lagimiz oldida bo'sh turgan yerga bir tup daraxt ekip ko'kartirsak. O'tkir akaga o'xshagan yerni e'zozlaydigan insonlar safi, ajabmas, kun sayin ko'paysa.

Yusuf ABDULLAYEV

Ixtirochi bolalar

Aziz bolalar! Orangizda ijodkor tengdoshlarigiz ko'p-a? Balki shuning uchun Shahar o'quvchilarning yaratgan ishlari tadbir tashkilotchilariga namoyish etildi. Shuningdek, «Yoshlik bu ijod qilish, izlanish, muvaffaqiyatlarga intilish davridir» shiori ostida ixtiolar himoyasi amalga oshirildi. Har bir ishtirotchi o'z ixtirosini ko'rsafdi. Tanlov 5 yo'naliш bo'yicha baholandi.

Ko'rik-tanlovi o'tkazishdan maqsad, o'quvchilarning texnika savodxonligini oshirish, ularning kelajakda o'z o'rinnarini topishga yordam berish va bilim ko'nikmalarini yana-da mustah-kamlashdan iborat. Tadbirda «Biz kelajak ixtirochilarimiz» Ziyoda Mamanazarova, sanoat mavzusida suhbat o'tkazilib,

o'quvchilarning yaratgan ishlari tadbir tashkilotchilariga namoyish etildi. Shuningdek, «Yoshlik bu ijod qilish, izlanish, muvaffaqiyatlarga intilish davridir» shiori ostida ixtiolar himoyasi amalga oshirildi. Har bir ishtirotchi o'z ixtirosini ko'rsafdi. Tanlov 5 yo'naliш bo'yicha baholandi.

Sergeli tumanini himoya qilgan Rahmat Normatov elektronika yo'naliш bo'yicha, kimyo, nest va gaz yo'naliшida Uchtepa tumani o'quvchisi Ziyoda Mamanazarova, sanoat va agrosanoat yo'naliшida o'z

ixtirosi bilan Rustam Akbarov, transport, harbiy texnika yo'naliшida Bektemir tumani o'quvchisi Alibek Jumabekov, Ibrohim Rahmonov esa tabiatni muhofaza qilish yo'naliшida olyi o'rinnarga sazovor bo'lishdi.

G'olib ishtirotchilar «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Bilasizmi, endi ular Respublika miqyosida o'tka-ziladigan «Ijodkor – ixtirochi» ko'rik-tanlovida ishtirot etishadi. Biz ularga omad tilaymiz.

Jamshid NABIYEV

Bolalar va o'smirlar, yigit-qizlar bilan bo'lgan uchrashuvlar hamisha qiziqarli va jozibali o'tadi. Bolalikning o'zi bir dunyo. U insonnning shunday katta boyligiki, undan unumli foydalangan kishi bir umr baxt koshonasida, eng ezgu tuyg'ular qurshovida rohat va farog'atda yashaydi. Shuning uchun ham donolar bolalik davrini qadrlash haqida bot-bot gapiradilar.

Yangiyo'lilik Ahmad akani o'sha donolarning farzandi, desam ishoning. Bir gal uchrashuvga taklif etdilar. Bordik. Kimlarningdir iltimosini bajaryapti, deya o'ylagandik. Ammo keyingi gal ham u kishining o'zlarini bosh bo'lib, uchrashuvlar o'tkazganiga guvoh bo'ldik. Bir qaraganda, bu odamga shu yugur-yugurlardan biror foyda ham, naf ham yo'q. Ammo, kezi kelganda aytilish kerakki, barcha yaxshiliklarni ana shu xislatlari orqali topayotganlari bor haqiqat.

– Biz shular uchun yashab yuribmiz-da! – dedi u kishi. Mana odamning dunyosi. Tarixda ham shunday elparvar va bolaparvar odamlar tufayli ezzulik gulzorlari ko'paygan, yaxshilik ustun kelib, adovat yengilgan.

Ikkinci gal uchrashganimizda, u bizga kitob sovg'a qildi.

– Bir qo'lda pul, ikkinchisida kitob tutgan odam mukammal hisoblanadi, – dedi yarim chin, yarim hazil ohangda. Ammo bu gapning zaminida katta ma'no borligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Bu safar ham uning sa'y-harakati, tashabbusi bilan Yangiyo'l tumanidagi maktab va kollejlarda bo'lib, turli tadbirdorda ishtiroy etib qaytdik. Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlar bilan bo'lgan muloqotlar, suhabatlar, uchrashuvlar juda samarali kechdi. Savol-javoblar me'yordan ortiq cho'zilgan paytlar ham bo'ldi. Iqtidorli bolalar va o'smirlar, talaba yoshlarning bilimga chanqoqligini ko'rib quvonib, ularning o'z yurtlari va ajodolarini e'zozlashlarini, nechog'lik ardoqlashlarini bilib, yana-da zavqlandik.

Ular orasida adabiyotga havas qo'ygan yoshlar ham ko'p. Ularga e'tibor qaratish esa burchimizdir.

Yangiyo'l akademik-litsey talabasi Munira Hamidova ezgu orzular bilan yashayotgan talabaldan biri. U a'lo o'qish bilan birga, she'riyatga ham qiziqadi. Uning



Rahmatullayeva, Dilfuza Sodiqova va boshqa talabalar Sohibqiron Amir Temurning fazilatlari haqida so'zladilar. Eng qiziqarli daqiqalar «Amir Temur» sahnaga chiqib kelgandan so'ng boshlandi. Talaba Baxtiyor Xolbo'tayevni hazrat Sohibqiron kiyimida ko'rgan



BAXTLI BO'LISH UCHUN YAXSHI BO'L yoki uchrashuvlardan so'nggi o'ylar

Vatan haqidagi yozgan bir she'ri diqqatimizni tortdi. Buyurtmenikidir, uni yomon qo'llarga bermayman, sahro, cho'llariga o'zim daryo bo'laman, deb yozarkan oxirida. «Bu yurt hammasizni, uni jahonga ko'rsataylik», deya juda sodda, ammo beg'ubor ohangda keng xulosa yasaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji talabasi Shozoda Qurbonovning «Baxt» she'ri ham diqqatimizni tortdi.

Baxtli bo'lism uchun yaxshi bo'l, inson, Saxovat ko'rsatsang, shuning o'zi baxt. Sen faqat yuraging, qalbingga ishon, Ezgulikni o'zingga qilib ol odat.

Ana shunday satrlar bitgan qalamkash singillarimiz-u alpomish yigitlarning qalb tuyg'ulariga oshno bo'lib, ular bilan yonmayon turar ekansiz, bu eng baxtiyor lahzalar, degingiz keladi. Biz hamon o'sha uchrashuvlar taassurotlari bilan yashayapmiz.

Yangiyo'l tibbiyot kollejida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 672 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan maroqli kecha ham esimizda qolgan tadbirdordan biri bo'ldi. Kechani talabalar Ma'muraxon va Nuriddinlar erkin va ko'ngildagidek olib borishdi. Shohista Jumaniyozova, Hilola G'oipova, Dildora Ibrohimxo'jayeva, Ayjan Qodirqulova ulug' ajodolarining bolalik va yoshlik yillari haqida zavqli hikoya qilib berdilar. Saodat Ibrohimova, Gulsinoy

yoshlar hayajonlarini yashira olmadilar. Uning yonida mulozimlar rollarini ijro etgan Sanjar Mahkamov, In'om Egannazarov, Sunnat Toshtanov o'zlarini yo'qotmay, butun zaldagilar e'tiborini jalb eta oldilar.

Zalni to'ldirib o'tirgan talabalar nafaqat o'z sohalarini, balki adabiyot, tarix, geografiya fanlarini ham yaxshi o'zlashtirganliklarining guvohi bo'ldik. Savollarga to'g'ri javob topgan murabbiy va talabalar turli kitoblar bilan taqdirlanishi. Kitobdan ortiq bebafo sovg'a bo'lishi mumkinmi?! Tarqatgan kitoblarimizga imzo qo'ydirib olish istagini yonimizga kelgan talabardan biri:

– Amir Temur to'g'risida yozilgan kitoblardan sotib olish uchun Toshkentga bormoqchi edim, sovg'a o'z oyog'i bilan keldi, bu ham baxtdan nishona. Sizlarga katta rahmat! – dedi hayajonini yaishirmay.

– Buning uchun Ahmadjon akaga rahmat deng! – deya hazillashdik.

Beg'ubor, samimi qahqaha yangradi.

Yana bir tadbir yakunlandi. Talaba yoshlarning ko'zlaridagi quvonch va shodliklarni ko'rib, o'zimiz ham yashardik.

Kollejning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini Baxtiyor Oqboyev:

– Yigit-qizlarimiz sizlар bilan yana suhabat qilishmoqchi, – dedi. Bosh ustiga. Ana shunday uchrashuvlar, dildan suhabatlar, samimi muloqotlar sizlarga ozgina ko'mak berayotgan bo'lsa, tahririyatimiz jamoasi hamisha xizmatingizda shay turadi. Shu Vatan, shu aziz yurt uchun birgalikda yashash va ishlashga nima yetsin?!

OYBARCHIN va SHOHIDA tayyorladi



EY AZIZ TUPROQ

Tuzingni oqlayin, aziz Vatanim,
Senga fido erur mening bu tanim.
Bog'imday yashnagan go'zal maskanim,
Hadsiz bebahosan, mislsiz tuproq.


Senga teng ko'rmasman hech bir chamanni,
Teng ko'rdim men faqat bitta onamni.
Dilimning tubida turgan Vatanni
Ardoqlab yashayman, ey aziz tuproq.

**Zulxumor CHEGEBAYEVA,
Yangiyo'l tibbiyot kolleji talabasi**

«OYGA DO'STMISAN, UKAJON?»
Menga yosh ijodkorlarning maqolalari ko'proq yeqadi. Shular ichida «Kitob afzalmi yo ko'zgu?», «Ona xotin», «Oyga do'stmisan, ukajon?», «Kecha va kunduz» kabi maqolalar e'tiborimni tortdi. Shohjahon Raupovning hikoyalari davomiy bo'lgani uchun gazetaning har sonida o'qib boryapmiz. Shunga o'xshash qiziqarli hikoyalari gazeta sahifalarida ko'proq berilishini istab qolamiz.

Umidaxon SHAROPOVA

MENGA YOQQAN MAQOLA



Aziz o'quvchilar! Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ga Sizlardan ko'plab maktublar keladi. Tengoshlaringiz o'z maktublarida she'r va hikoyalar, xabarlar, shular qatorida maktabdagagi tadbirdilar haqida ham yozib yuboradilar. Poystaxtimizdagи 70-maktabning 6-sinf o'quvchilaridan ham tahririyatga uzlusiz xatlar keladi. Bu safar ular o'zlariga manzur bo'lgan maqolalar haqida fikr bildirganlar. Marhamat, ularning shaxsiy fikrlari bilan tanishing:

HURMAT QILGAN HURMAT KO'RADI

«Tong yulduzi» gazetasining 12-sonida e'lon qilingan «Hurmat qilgan hurmat ko'radi» maqolasi menga manzur bo'ldi. Bu maqolada Xudoyberdi To'xtaboyevning biz yoshlarga oid o'gitlari berilgan ekan. Sevimli yozuvechimning barcha kitoblarini o'qib chiqqanman. Shuning uchun ham ularning o'gitlariga amal qilishga harakat qilaman.

Mahliyo QURONBOYEVA

MENING DO'STIM O'G'RIMI?

«Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini intizorlik bilan kutaman. Gazetaga e'lon qilingan «Mening do'stim o'g'rimi?» maqolasi meni o'ylashga chorladi. Menimeha, bizni mushohada yuritishga undovechi maqolalar ko'proq chop etilsa, oq va qorani ajratishimiz osonroq bo'ladi.

Nargiza QORABOYEVA

SPORT XABARLARI

Sportga qiziqqanim uchun, sportga ajratilgan sahifalar menga juda yeqadi. Sport sahifasini mutolaa qilib bo'lib, she'rlarni ham birmabir o'qib chiqaman. Eng so'nggida esa latifalarga gal keladi. Ularni o'qib, kayfiyatimni ko'tarib olaman.

Sanjar XO'JAYEV


GARRI POTTER

6-sahifada e'lon qilinadigan «Garri Potter va hikmatli tosh» davomli roman menga yeqadi. Ushbu kitobning oltita qismini mustaqil o'qib chiqqanman. Shu kitobni gazeta sahifasida o'zbek tilida chiqayotganidan xursand bo'ldim. Xohlardimki, «Garri Potter va sirli xona» nomli ikkinchi kitobi ham o'zbek tiliga tarjima qilinib, gazeta sahifalarida chop etilsa.

Sulton AZAMATOV

TAHRIRIYATDAN:

Bundan tashqari, Nozimaxon Rasulova, Azizaxon Bahodirova, Iroda Muhammadjonova, Sofiya Abduroitova, Abdullo Husanov, Bobur Mirkomilov kabi o'quvchilar ham o'zlariga manzur bo'lgan maqolalar haqida yozibdilar. Biz faol o'quvchilarining jonkuyar ustozlari Dilfuza G'aniyevaga gazeta orqali minnatdorchilik bildiramiz. Zero, ana shunday fidoyi vajonkuyar ustozlar bor ekan, o'quvchilar o'qimishli va savodxon bo'lib kamol topishlariga shubhamiz yo'q.



BU DARGOHDA AZIZ IZLAR BOR!

Sizning maktabingizda ham buyuk bobokalonimiz Amir Temur tavalludining 672 yilligi nishonlandi, to'g'rimi?! Axir bu sanaga yurtimizing har bir ilm dargohida alohida e'tibor berildi. Biz sizga tadbirlarga boy mактаб, deb tanishtirganimiz 300-maktabning 4-«G» sinfida ham tadbir bo'lib o'tdi...

SAN'ATKORLAR SINFI

— Sinf rahbarimiz Shohida opa Zokirova Amir Temur rolini ijro etishimni aytganlarida, meni vahima bosdi. Keyin bobomiz haqida o'ylab monologlar o'qiy boshladim. Dadam menga toj yasab berdilar. Bu tadbirimizga rosa bir oy tayyorlandik, o'ziyam, — deydi sind sardori Sunnatilla Muqimov. Uning kattalarday jiddiylik bilan gapirishi, shaxdam harakatlarini ko'rib, san'atga zavqi balandligini sezdi. Bu sind bolalarining har biri san'atga oshno ekanliklarini Bibixonim qiyofasini yaratgan Nodira Ko'chimovaning chiqishlarida o'z aksini topdi. Uning aytishicha, malikalar kiyimini kiyishni orzu qilgan ekan. Ustozi unga kiyimlarini bezab tayyorlab bergenini so'zlab berdi. Mirzo Ulug'bek bo'lib gavdalangan Islom Abdullayev esa o'zini shahzodalarday tutib, sindoshlari orasida ajralib turardi. Ular tayyorlagan sahna ko'rinishlarini ko'rib, o'quvchilarning ma'naviy



barkamollikka erishayotganliklariga amin bo'lasiz. Bu esa o'qituvchi va o'quvchilarning izlanuvchanligi, maktabdagi ma'naviy ishlarning samaradorligini ko'rsatadi.



jahon orqali ko'rib quvonamiz. Tadbirimizda ishtirot etgan Sergeli tumani Xalq ta'limi bo'limi Boshlang'ich ta'lim uslubchisi Shoira Nazarova aytganlariday, maktabimiz hamisha o'quvchilarning ma'naviy barkamolliq uchun xizmat qiladi.

BOLA BOSHIDAN...

Boshlang'ich sind o'quvchilarining shunchalik mehr, qunt bilan she'r aytilib, sahna ko'rinishlarida ishtirot etishlarini ko'rib, xalqimizning «Bola boshidan bilinadi», degan gapi qanchalik to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qildik. Bunday iqtidorli bolalar bilan ishslash o'qituvchiga ham faqat zavq bag'ishlaydi. Maktabning boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy bo'lim mudiri Marhabo opa Ziyovuddinova ham boshlang'ich sinflar bilan ishlayotgandan mammun. Zero, maktab muqaddas dargoh, unda faqat mehr va fidoyilik bo'lishi kerak.

Sayyora JO'RAYEVA



TUMANDA BIRINCHIMIZ

Maktabning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinosari, Xalq ta'limi a'lochisi Sanobar opa Alimova so'zimizni tasdiqlaydilar:

— Bugungi tadbirdan bilgan bo'lsangiz kerak, bizning o'quvchilar chindan ham iqtidorli bolalar. Hamisha tadbirlarda faol bo'lgan sobiq o'quvchilarimiz ham bugungi kunda jamiyatda o'z o'rinalriga egalar. Ular orasida siyosatchi-yu san'atkor bo'lib yetishganlarini oynayi



Mening ismim Gulchehra. Toshkentdag'i 172-maktabning 4-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiyman.

Tunov kuni maktabdan kelib, uylarni yig'ishtirdim, hovli, ko'chalarni chinnidek qilib supurib qo'ydim. Qilgan ishimdan bahri dilim ochilib ketdi. Qaniydi, bugun buvijonim kelib qolsalar, qilgan ishlarni ko'rib, quvonib ketardilar-da, deyqa

BUVIM QUYOSHGA O'XSHAR

xayolimdan o'tkazdim. Darslarimni tayyorlab bo'lgach, tashqariga chiqdim. Uzoqdan tez-tez yurib kelayotgan bir ayolga ko'zim tushdi. «Judayam buvijonimga o'xshab ketarkanlar-a?» deya ko'nglimdan o'tkazdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, buvijonim ekanlar. Ularga peshvoz chiqib, quchoqlashib ko'rishdik. Uyga kirdilar-u, hammayoqning chinnidek ekanligini ko'rib, meni maqtay ketdilar.

— Ona qizim, qiz bolali uy shunaqa sarishta bo'ladi-da, barakalla! Maktabdan keliboq, uy ishlarni

bajaribsanda, tushlik qildingmi o'zi? — dedilar mehribonlik bilan

boshimni silab. Keyin birgalashib choi ichdik.

Buvijonimning ajoyib odatlari bor, mehmonman-ku, deb o'tirmay, har gal kelganlarida onam ishdan qaytgunlaricha biror tansiq taom tayyorlab qo'yadilar.

— Bugun sizlarga yupqa qilib beraman, dadang ham yaxshi ko'radi, — dedilar-u, ishga kirishib ketdilar. Men ham ularga ko'maklashdim. Bahonada xamir yoyishni ham o'rganib oldim.

Bir zumda yupqa ham pishdi. Biram shirin, biram mazali chiqdiki, asti qo'yaverasiz.

— Buvijonim-ey, qo'lingizda sehr bormi deyman-a? Siz kelsangiz, uyimiz nurga to'lib ketadi, Shuning uchun ham sizni quyoshga o'xhatgim keladi, — dedim ularni quchoqlab...

— Qani, Gulchehraoy, kundalik daftaringni olib kel-chi, bir ko'ray, — dedilar oromkursiga joylashib o'tirib

olib.—Meni qanday baholaring bilan xursand qilasan?

Darrov kundaligimni olib chiqdim. Bir kunda olgan yettita «5» baholaringma ko'zlar tushdi-yu, nurli chehralari yana-da yorishib ketdi. So'ngra, erinmasdan yil boshidan buyon olgan a'lo baholaringni sanab chiqdilar. Ja'mi 367 ta «5»!

— Balli, ona qizim, uylarning sarishtaligini, kundaligingdag'i a'lo baholarni ko'rgan ota-onang ishdagi charchoqlarni ham unutib yuborishadi. Axir ular siz uchun qayg'urishadi, kelajagingiz uchun deb tinim bilmay ishlashadi-da. Shuni qadriga yetinglar. Puxta bilim olib, ota-onangiz orzu qilgan inson bo'lib kamol topinglar. Keksaygan chog'larida ularga suyanch, beliga quvvat, ko'zlariga nur bo'linglar.

Buvijonimning kuyunchaklik bilan aytgan har bir o'gitlari biz uchun nechog'lik qadrli ekanligini yosh qalbim bilan anglab turardim. Bejiz buvi va buvajonisi bor insonlar, dunyodagi eng baxtli insonlar bo'ladi, deyishmas ekan-da.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Respublikamiz aholisining 64 foizidan ko'proq'ini yoshlar tashkil qiladi. Bu juda quvonarli holdir. Zero, har qanday jamiyatning taqdiri, kelajagi yosh avlodga, uning jismoni, ma'naviy kamolotiga bog'liq. Prezidentimiz yoshlarimiz uchun imkonlar eshigini keng ochib, mazkur yilimizni «Yoshlar yili» deya e'lon qilganlarida, aynan yurt ravaqa, kelajagi yoshlar bilan bog'liqligi ko'zda tutilgan.

Bunday yuksak e'tibor, g'amxo'rliklarga yoshlarimiz ham o'z navbatida har jabhada ulkan yutuqlar, muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan holda javob qaytaryaptilar.

Kuzatib borayotgandirsiz, ushbu sahifada ana shunday tengdoshlaringiz haqida hikoyalar berib boryapmiz. Bugun esa ular uchun yaratilayotgan shartsharoitlar, keng imkonlar haqida fikrashmoqchimiz.

NAVOIYLIK O'G'IL-QIZLAR

Respublika axborot maslahat markazi Navoiy viloyat bo'linmasining «Maslahatchi» gazetasi bosh muharriri Abdumutal Norboyev bu xususda quyidagilarni gapirib berdi:

— Yurtimizning eng yosh, navqiron go'shalaridan hisoblanadigan Navoiy shahrimizda 129700 nafar aholi istiqomat qiladi. Shulardan 51304 nafarini yoshlar tashkil qiladi. Shahrimizda 16 ta maktab, 3 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 9 ta kasb-hunar kollejları va akademik litseylar, 1 ta pedagogika oliygohi, 1 ta Navoiy konchilik oliygohi mavjud bo'lib, ularda 44443 nafar o'quvchi-talabalar tahsil olishmoqda.

2005-yildan buyon respublika Kamolot YOIH tashabbusi bilan joylarda «Kelajak ovozi», «Yangi avlod» ko'rik-tanlovlar o'tkazilib, ularda yoshlar olti yo'naliish bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyish etib kelishyapti. Ana shunday tanlovlarning respublika bosqichi g'oliblaridan Shahoza Sulaymonova, Bekzod Toliboyev, Shohruh Boboqulov, Nilufar Xo'jayeva, Temur Turdiyevlar nomini faxr bilan tilga olishimiz mumkin.

Navqiron shahrimizda sportsevar bolajonlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Yaqinda qurib bitkazilgan TMKga qarashli sport saroyida BUMS-3, BUMS-4 sport majmualari ular ixtiyoriga topshirildi.

Osmoni feruz, odamlari dilso'z shahrimizning bilimga chanqoq, intiluvchan o'g'il-qizlari bunday imkoniyatlar, shart-sharoitlar, g'amxo'rliklarga barcha sohadagi ulkan yutuqlari bilan javob berishlariga aminman.

YASHILLIKKA BURKANGAN VATAN

Gullarga burkangan Farg'onan viloyatining o'zi go'zal. Tuman va qishloqlari esa undan-da go'zal. 5-umumiyo'rta ta'lim maktabi joylashgan So'x tumani viloyatning ana shunday so'lim go'shalaridan. Mazkur bilim dargohi rahbari oliy toifali o'qituvchi Amirjon Temirov o'quvchilarga yaratilayotgan sharoitlar xususida quyidagilarni gapirib berdi:

— 1979-yilda maktabimizning sobiq direktori A'zamjon Mutalliyev boschiligidagi bog' barpo etilgandi. Ana shu bog'imiz hozirda gurkirab ketgan. Tog' hududida joylashgani uchun ham bog'imizni sun'iy yo'l bilan suv tortish orqali sug'oramiz. Bog'imizdagidagi 400

tupdan ziyod o'rik va olma daraxtlarimizdan 2 mln. 500 so'mlik daromad olishni mo'ljallayapmiz. Parvarishlayotgan 300 tup teragimiz ham ancha bo'y cho'zib qoldi.

Yana sarmoyadan tashqari mablag' topish maqsadida temir-tersak, qog'oz chiqindilari, shisha idishlar to'plash kabi tadbirlarni ham rejalashtirganimiz.

Bu ishlardan tushgan daromadni maktabimizning moddiy-tehnik bazasini mustahkamlash ishlariiga sarflash, shuningdek, o'qituvchilarimizni ijtimoiy jihatdan rag'baltantirish ishlariiga sarflash niyatidamiz.

Maqsadimiz — go'zal diyorimizni yashillikka, go'zallikka burkash,

MUSALLAM USTOZNING «OLTIN»LARI

shuningdek, to'garaklar faoliyatini doimo nazorat qilib turadi.

Maktabda har bir ustozning o'z o'mi, hurmati bor. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, «Shuhrat» medali sohibasi Musallam opa Parmonovani o'quvchilar o'zgacha mehr bilan ardoqlashadi. Musallam opa o'quvchilarga shunchaki dars beribgina qolmay, ularning iqtidori, qiziqish va intilishlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Shundanmi, o'quvchilari orasida iqtidorli, iste'dodilari talaygina. «Yosh rassomlar» to'garagi a'zosi, 4-«A» sinf o'quvchisi Jamshid Muhammatov yaqinda maktabda o'tgan «Bunyodkorlik yo'lida» mavzusidagi rasmlar va fotosuratlar tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Yana bir shogirdi Shahzod Muhammatov ham «Mohir qo'llar» to'garagining faol ishtirokchilaridan. Hozirda u o'zi mustaqil tarzda kiyimlarni bichib-tikib, tengdoshlari hayratini oshiryapti. ularning har bir yutug'idan Musallam opaning boshi ko'klarda.

— Bular mening oltinlarim, — deya faxrlanib qo'yadi shogirdlarini quchib Musallam opa. Quvnmasinmi axir, shogirdlari «yoshlik» atalmish har lahzasi oltinga teng damlarini g'animat bilib, o'qib-o'rganishga, hunarli bo'lishga intilishyapti. Bir so'z bilan aytganda, umidini oqlashyapti.



Buyuk bobokalonimiz A. Navoiy nomi bilan ataluvchi 7-o'rta maktab Navoiy viloyatining eng chekka hududida joylashgan. Mazkur bilim maskanida tahsil olayotgan o'quvchilarga ko'pchilik tengdoshlari havas qilishadi. Sababi, ularning ustozlar bobida juda omadlari chopgan. Maktabning jonkuyar rahbari Gulasor opa Pardayeva o'quvchilarning puxta bilim olishlari, sport bilan shug'ullanishlari, hunar o'rganishlari uchun yetarli shartsharoitlarni yaratib berishga astoydil bel bog'lagan. O'qituvchilarning zamon talablari darajasida dars o'tishlarini,



dasturxonlarimizni noz-u ne'matlar bilan to'ldirish. Yo'lingiz tushsa, bog'imizga bir keling, sarxil mevalarimiz bilan mehmon qilamiz...

Tumanimizda o'g'il-qizlarimiz kamoloti uchun hech narsani ayamaydigan saxovatpesha insonlar talaygina. Yangicha yondashuv asosida homiylar yordamini ham jalb qilishga bel bog'ladik. Taklifimizni «Mullo — Sa'dullo» fermer xo'jaligi boshlig'i Erkaboy Sa'dullayev birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatladi. Bir sinfxonamizni zamonaviy talablar asosida jihozlab, ko'pchilikka ibrat bo'ldi.

Maktabimizda sportsevar bolalar ko'pligini voleybol, futbol to'garaklarining gavjumligidan ham bilsa bo'ladi. Voleybolchilarimiz «Umid nihollari» musobaqasining tuman bosqichida peshqadamlar safidan o'r'in olib, R. Sharipov, H. Kimsanov, G. Ziyodullayev kabi ustozlarining ishonchini oqlashdi.



O'ZBEKİSTON YOSHLARIMIZ

Ko'kka yetdi boshlarimiz,
O'zbekiston yoshlari.
Lola yuzniz, shirin so'zniz,
Elning ko'zi, qoshlarimiz.
Paxtamiz bor, donimiz bor,
Buyuk shuhrat-shonimiz bor.
Tuprog'i zar toshlaridur
O'zbekiston yoshlari.
Amir Temur, Jaloliddin,
Mir Alisher, Kamoliddin,
Mohitobon, har bir zamon,
O'zbekiston yoshlari.
Yurtboshimiz qo'llar bizni,
Tole tamon yo'llar bizni.
Baxti butun, taxi butun,
O'zbekiston yoshlari...

Shohijahon SAIDOV,
Toshkent viloyati, Angren
shahridagi 19-umumiyo'rta
ta'lim maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi

TAHRIRIYATDAN:

Aziz o'quvchilar, sizning maktabingizda nima gaplar? Yaratilayotgan shartsharoitlar, imkoniyatlardan mammunmisiz? Ularga javoban qanday ibratlari ishlarni amalga oshiryapsizlar? Shular haqida bizga albatta yozib yuboring. Maktablaringizni kutamiz.

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Dambldor o'girildi va ko'chaning past tomoniga yurib ketdi. U tuyulishda to'xtadi va cho'ntagidan kumushrang o't yondirgichni chiqardi. Uni bor-yo'g'i bir marta shig'illatgandi, go'yo hech nima sodir bo'limganday har o'n ikkita chiroq yana yondi, Tis ko'chasi tag'in yorishib ketdi. Dambldor buyorug'likda ko'chaning narigi tomonidagi tuyulishdan baroq mushuk burilayotganini payqadi. Keyin esa to'rtinchu uy ostonasida yotgan o'rovga qaradi.

— Senga omad yor bo'lsin, Garri, — shivirladi u, poshnalari bilan shartta o'girildi va ridosini shildiratgancha g'oyib bo'ldi.

Tis ko'chasida ko'tarilgan shamol tartibli taroshlangan butalarni tebratardi, sarajom-sarishta ko'cha siyohrang osmon ostida sokin uxlari va mabodo, qayeradir sirlari narsalar ro'y berishi mumkin bo'lsa ham, aslo bu yerda emasday tuyulardi. Garri Potter o'zining choyshab ichida uyqusida u yoq-bu yoqqa ag'anardi. Uning kichik qo'lehlari timirsiklab xatni changalladi. U o'zining boshqacha ekanini va mashhur bo'lib qolganidan ham bexabar uxlardi. U bir necha soatdan keyin sut sotuvchining kelishidan avval bo'sh idishlarini olib chiqib qo'ymoqchi bo'lib, eshikni ochgan chog'ida Dursl xonimning chinqirig'idan uyg'onishini hali



«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida hazilomuz bir she'r chiqdi.

Bahor keldi, gazetani maqolamas she'r bosdi,
Sahifaga joylayolmay muharrirni ter bosdi.

Bu Ahmad og'aning shoirlarga beozor turtkisi edi. Ha, chindan ham hozir bahor, ochilish-sochilish payti. Hatto xarsanglar bag'ini yorib chiqqan maysalarga, hayrat ko'zi bilan intiq tikilib qolasan.

Qotgan og'ochlardan bo'rtib chiqqan gul-u kurtaklarga tikilib, bir zum dilingni nimadir bezovta qilayotganini sezasan kishi.

Demak, zavq seni hayajonlan-tiryapti, nimadir yozish kerak.

Gullar yanglig' ochilib, anhorlar yanglig' shivirlab, maysalar yanglig' yugurib yozish kerak.

Bu o'sha Ahmad og'a ta'kidlagan qat-qat she'rлardir.

Ularning satrlari kayfiyatni ko'tarishi yoxud dilni tunday xuston etishi mumkin.

Xonamizdag'i telefon tez-tez «chinqirab» turadi.


Biz «Tong yulduzi» gazetasining xodimlari navbatma-navbat telefonga yuguramiz.

Kimdir Qoraqlrog'iston, birov Surxondaryodan, yana birov Quyi-chirchiqdani biz bilan bog'lanadi. She'rлari haqida so'raydi...

Kimdir she'rлari chiqmayotganidan noliydi. Yana birov, «Nega she'rим chiqmas ekan», deya faryod soladi. Shunday paytda kishini she'rдан ko'ngli qoladi. Yo'q she'rдан emas, she'r yozmoqchi bo'lib yozolmay yurgan ijodkorlarga rahming keladi.

«Sahifaga joylayolmay muharrirni ter bosdi». Ahmad og'a behuda achimmagan ekan, badanimni sovuq ter bosadi. Gazetamizga hisobsiz she'rлar yurtimizning turli go'shalaridan yog'ilib kelaveradi. Ba'zan bolajonlarimizning topqirlik bilan

aytgan bir satr she'ridan boshimiz osmon-u falakka yetadi. Ba'zan esa xomsemizgina xatdan bir qator iliq fikr topolmay andarmon bo'lamic. Qani edi she'r bozorda sotilsa-yu, siz uning eng yaxshisini olib, suygan kishingizga sovg'a qilsangiz. Yo'q, she'r ilohiy ne'mat, u hammaga berilmaydi. Hazrat Navoiy: «She'rларни chiqaringlar», deb birovning




Bizning tarjima

Dursllar o'z ostonalari qaydan paydo bo'lib qolgani noma'lum jiyalarini topgan o'sha tongdan beri qariyb o'n yil vaqt o'tdi, biroq, Tis ko'chasi bu davrda deyarli o'zgarmadi. O'sha parvarishlangan bog'chalar uzra quyosh nurini sochar va Dursllar uyining kiraverish eshidigagi o'sha kumushrang to'rtraqamini yoritardi, u janob Dursl televizorda bashoratomuz yangiliklar ko'rsatuvi ko'rgan o'sha kechadan beri deyarli o'zgarmagan mehmonxonani ham nurlaridan bebahra qoldirmasdi.

Faqat kamin ustida turgan ramkaga solingan suvratlar o'sha davrdan beri ancha muddat o'tganiga guvohlik berardi. O'n yil burun suvratlarda turli rangdagi bosh kiyim kiygan katta pushtirang to'pni eslatuvchi nimadir tasvirlangan edi, endi esa suvratlarda sochlari sarg'ish, yirikkina bolakay o'zining birinchi velosipedini minib o'trgani, yarmarkadagi oto'yin ichida aylanayotgani, otasi bilan kompyuter o'yinlarini o'ynayotgani, onasi quchog'iga olib o'payotgan holatlari aks etgandi. Biroq, bu suvratlar shu uyda yana bir bolakay yashashi haqida gapirmsadi.

Gulchehra SA'DULLAYEVA
tarjimasi

Davomi bor.



kayfiyatini buzmagan. 11 yoshli Alisherbek Lutfiy hazratlarini sehrli satrlari bilan lol qoldirgani hammaga ayon. Endi maktublarini qo'liga olamiz. Andijon viloyati, Baloqchi tumani, Cho'nqayma qishlog'idan Abdulaziz Mamadaliyev o'z dilidagilarini to'lqinlanib yozadi. U maktubida «Tong yulduzi» gazetasi meni tanitdi, Buxoro, Xorazm, Samarqanddan muxlis va do'st ortirdim, deydi. U o'zining «Shabnam» she'rida:

**Oq atirgul xushbo'y yanog'in
Ko'zin ochmay shabnanga tutar...**

satrlari bilan oppoq atirgulning tongi holatini go'zal tasvirlaydi. Yoki:

**Subhi sodiq tong otar chog'i
Nurga to'lar osmon quchog'i.**

**Ona yerning ko'ksi bo'lib nam
Maysalarga qo'nadi shabnam...**

Abdulazizning izlanishlarida nimalardir borligini ko'rib ko'ngil yorishadi.

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 79-maktabning 6-sinf o'quvchisi Shahriniso Panjiyeva:

Ustozim yo'ichi yulduz,

Karvonlarga bosh bo'lgan.

Yo'limizni yoritib

Qalbimda quyosh bo'lgan...

6-sinf o'quvchisi Shahriniso ustozining yo'ichi yulduzdek karvonlarga boshligini chiroyli tasvirlagan, desak xato bo'limas.

Negaki, jajjigina o'quvchining tasviri... Sirdaryo viloyati, Xovos



Aziz bolajonlar! Shoир bobongiz Ibrohim Donishning she'rлarini «O'qish kitobi», «Odobnom», «Ona tili», «Musiga» darsliklaringizda o'qigan bo'l sangiz kerak-a? Uning «Pomidor nega qizil?», «Tushdagи sarguzasht», «Diloromning qo'shig'i», «Charog'on yulduzlar», «Hayot kitobi», «Yetimning baxti», «Handalak» nomli kitoblari kutubxonangizdagi javondan munosib joy olganiga shubhamiz yo'q.

Quyida shoирning ijodidan namunalar o'qiysiz:

QULOG'IM BOR

Qulog'in ushlab ko'rib,

Sherzod keldi yugurib:

— Sen quloqsiz, dedilar
Meni buvimlar boyta.
Bitta emas, ikkita

Qulog'im bor-ku, aya!



SOZ BO'LADI

«Mehmon kelsa uyimizga,

Shodlanaman sovg'a olib», —

Maqtanardi Mirzag'olib,

So'zni ilib ketdi Tolib:

«Biznikiga mehmon kelsa,

Barchamizga soz bo'ladi».

Hasan-Husan akamlarning,

Janjallari oz bo'ladi.



tumanidagi Muhammad Yusuf nomli 1-iqtidorli bolalar maktabi o'quvchilarilari Hilola Jumaboyeva, Mahliyo Zulhaydarovning she'rлarida ham go'zallikni:

Tabiat rang, barang, asli bebaҳо,
Bahor ajoyib, bir musavir go'yo...
kabi iliq satrlar borligini payqadik.

Andijonlik Mavluda Isroilova «Kamalak» she'rida:

Kuchli qaldiroqdan

Hamma qochib ketadi.

Biroz o'tgandan so'ng,

Quyosh chiqib ketadi...

deya she'rini bayon bilan boshlaydi.

Xuddi shunga o'xshash satrlar surxondaryolik Xolida Abdukarimovning «Onajon» she'rida:

Siz hammadan ulug'siz,

Siz hammadan buyuksziz,

Sizziz dunyo qorong'u,

Sizziz olam bezaksiz.


Siz bilan nurli olam,

Siz bilan nurli bo'ston.

Sizdir bu ulug' inson,

O'zimning onajonim...

Baraka topkur, she'r bunday yozilmaydi, desangiz, bilmadim, bolalar qay ahvolga tushar, bu men uchun qorong'u. Ushbu so'zlarni samarqandlik Zarina Elmurodova, Ozoda Ostonova, Sherbek Fayzullayev, qashqadaryolik Humayra Eshmo'minova, Dilorom Jabborova, xorazmlik Dinora Rahmatullayeva, Munira Karimova, buxorolik Shahnoza Tolmasovaning she'rлarini o'qib, ular hali juda ko'p kitob o'qishlari kerakligini angladim. Ijdor o'tkir ko'zli rassom, nigohi to'la hayrat bo'lishi kerak. U tabiatning hech kim ilg'ay olmagan, dardli nuqtalarini ilg'ay olishi, qolaversa, har bir yozayotgan satri o'quvchi qo'liga yetib borganida dillarni zavqlantirsin, badanlarni jimiratsa, demak, she'r yozilibdi. Har qanday oldi-qochdi satrlar bilan abadiyotga kirib bo'lmaydi. Bas, shunday ekan, ijodkor bolajonlarimizga otangiz-u onangizni, bobongiz va momongizni sarson-sargardon qilib she'r chiqarishga uringandan ko'ra, tinimsiz izlanishda bo'lsangiz, sizdan kelajakda yozuvchi yoki shoир chiqishi mumkin. Bu og'ir va mashaqqatli yo'lda sizga omad yor bo'lishi tilaymiz.




Axtamkul KARIM



2008 Tong yulduzi
28-aprel

G'oliblarning parvozi



GIMNASTRADANING

SIRI



Bolalar, gimnastika so'zi sizga yaxshi tanish-a? Ammo gimnastrada-chi? U ham biror sport turidir-da, deb o'layapsizmi? Yo'q, salgina adashdingiz. Gimnastrada sport turlari qatoridan muhim joy egallamagan. Unda shug'ullanish yoshi ham chegaralamagan. Qulayligi, gimnastradada birdek sog'lom va nogiron shaxslar ham shug'ullanishlari mumkin. Uning bosh ofisi Shveytsariyada joylashgan.

Bolalarning savollari biram ko'p bo'ladiyey, deyishadi kattalar. Biz esa sizlarni savollaringizga javob topishga shoshilib yuramiz.

Kuni kecha Portugaliyada gimnastrada festivali bo'ldi. Unda Toshkent viloyati, Bekobod metallurgiya kombinati tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlaridan iborat O'zbekiston jamoasi ham qatnashdi. Biz ham safar taassurotlari haqida eshitib, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi Bosh



mutaxassis Muxtasar opa Abdurahmonova qabulida bo'lib, gimnastradaning sirlari haqida fikr almashdi.

— Muxtasar Alimboyevna, bolajonlarimizga O'zbekistonga gimnastradaning kirib kelishi haqida so'zlab bersangiz?

— Albatta, gimnastika va gimnastrada so'zi bir-biriga yaqin. Shuning uchunni, ko'pchilik ikki so'zni bitta narsa deya o'laydilar. Gimnastrada professional sport turi emas. U sog'lomlashtiruvchi sportdir. Ammo gimnastikaning asosiy qismlaridan sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, akrobatika, trampolin va aerobika usullari mavjud.

SHAXMAT QIROLICHASI BO'LMOQCHI

Bolalar, siz o'qigan ertaklarda malikalar haqida qirolichcha degan so'z ishlataladi. Shundaymi? Chunki bu iltifot juda katta maqomga ega bo'lgan kishilarga xos.

Nega sizga aynan qirolichha haqida gapiryapmiz? Sababi, jizzaxlik sportimiz malikasi Yulduz opangiz ham shaxmatda qirolichha bo'lishni niyat qilgan. U o'n bir karra mamlakat championi, xalqaro turnirlar g'olib va jahon championati sovrindori...

Hamda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi, «Olimpiada umidlari – 2001», «Toshkent yozi – 2002» festivalining oltin medal sovrindori, 2004-yili esa Moskva shahri xalqaro turnirida mutloq g'olib bo'lgan Yulduz Hamroqulovaga havas bilan boqayotgan mutaxassislarining sikri grossmeysterlikka (olitalikk), ya'ni shaxmat olamida o'zbek qizlaridan birinchini bo'lib katta maqomiga erishishga shubha qilmayaptilar.



— Bolaligimdan shaxmat olamida o'sdim. Hindistonning Bikoner shahrida o'tkazilgan Osiyo championatida qatnashganimda, 12 yoshda edim. Soddagina o'zbek qiziga musobaqa, to'g'risi, uncha e'tibor berishmad. Iqtidorim, dadil yurishlarimni, dadam o'rgatgan usullarni qo'llash payti o'shanda boshlangandi. Raqiblarim bilan shu usullarga tayanib bahslashdim. Omadni qarangki, qit'amizning

Yaqinda Z u l f i y a n o m i d a g i D a v l a t mukofotiga s a z o v o r b o ' l g a n c h e m p i o n Y u l d u z o p a n g i z n i s h a x m a t qirolichasi bo'lishiga nima sabab bo'ldi ekan?

—

«Olimp sari yo'l» tanloviga

YOMG'IRLARDA O'CHMAS MASH'ALA



Qadrli bolalar! Gazetamizning o'tgan sonlarida Afinadan Pekingda qarab yo'l olgan mash'ala haqida aytilib o'tgan edik.

Mash'ala 24-mart kuni Gretsya poytaxti Afinadan yo'liga chiqib, 31-mart kuni Pekingda kirib bordi. Shundan so'ng, Olimpiada mash'alasi estafetasi dunyoning barcha qit'alari (Antarktidadan tashqari) bo'ylab o'tib, 6-avgust kuni Olimpiada ochilishi oldidan mezon shaharga kirib boradi. Olimpiada mash'ala estafetasi 137 kun Olimpiada tarixidagi eng uzun estafetaga (ya'ni, 137000 km.) aylanadi.

Olimpiada mash'ala Xitoy an'anaviy usulida yasalgan bo'lib, mash'ala soatiga 65 km. tezlikda esadigan shamol va 50 millimetrik yog'adigan yomg'irda ham o'chmaydi.

Mash'ala jahoning yirik 22 ta shahri, «Buyuk ipak yo'li»dagi shaharlar va Xitoyning bir necha shaharlaridan o'tadi.

Ayni shu kunlarda Olimpiada mash'ala Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan olib o'tilmoxda. Bangkok, Kuala-Lumpur, Jakarta shaharlarida estafeta musobaqlari tantanali bayramlar tarzida o'tmoqda. Bundan so'ng esa mash'ala Avstraliya qit'asiga yo'l oladi.

Bolajonlar, bilasizmi, mash'ala dunyoning eng yuqori nuqtasi, dengiz sathidan 8848 metr balandlikda joylashgan Ximolay tog'idiagi Jomolungma (Everest) cho'qqisiga ham olib chiqiladi. Buning uchun estafeta tashkilotchilari 2007-yilning

iyun oyida cho'qqiga olib chiqiladigan uzunligi 108 kilometrni tashkil etuvchi ko'tarish moslamalarini qurishni boshlab yuborganlar. Hozirda qurilish ishlari tugab, mash'alan olib chiqish uchun tayyor holatga keltirilgan. Bu qurilish uchun Xalqaro Olimpiya qo'mitasi 19,7 mln. mablag' ajratgan. Olimpiya mash'ala bu yerga 1-may kuni kelishi kutilmoqda. Mash'alan cho'qqiga olib chiqishda 25 nafar nepallik harbiy alpinistlar sportchilarga ko'maklashadi.

Sherali NAMOZOV

Beijing 2008



SHVEYTSARIYADAN YO'LLANMA

Sportchilarimiz chindan ham kuchli-da. Ular Xitoya bo'lib o'tadigan Pekin Olimpiadasiga yo'llanmani qo'lga kiritish uchun astoydil harakat qilmoqdalar.

Natijada «Pekin – 2008» Olimpiadasiga yo'llanmalar sonini ko'paytimoqdalar.

Kechagina Shveytsariyada hamyurtimiz Soslan Tigiyev erkin kurash bo'yicha Olimpiada yo'llanmasi uchun bahsda g'oliblar qatoridan o'rinni oldi. Soslan akangiz bahslarda 74 kilogramm vaznda qatnashdi va yo'llanma sohibiga aylandi. Qanday yaxshi-a, sehrli o'lkada bo'ladigan Olimpiadada qatnashish! Demak, Soslan akaning Shveytsariyada qo'lga kiritgan g'alabasi sportchilarimizning yo'llanmalar sonini 32 taga yetkazdi.

yetakchi shaxmat ustalarini mag'lub etib, faxrlri 3-o'rinni qo'lga kiritdim. Bu voqeaga roppa-rosa sakkiz yil bo'ldi. Ammo o'sha quvonchlarm kechagidek ko'z o'ngimda... Hali-hali dadamning ko'ngli faxrga bo'lib, sevinch yoshlari shashqator oqayotganini, meni bag'riga bosib, ko'ngli g'ururga to'lganini eslayman... O'shanda men qo'lga kiritgan bronza medali mustaqil O'zbekistonimizning xotin-qizlar shaxmati bo'yicha xalqaro musobaqlarida qo'lga kiritilgan ilk yuksak mukofoti edi. Hindistondagi erishgan bu katta yutuq meni va dadamni ana shunday ruhlantirgandi.

14 yoshimda sport ustasi bo'lganman. Shundan so'ng, men respublika championati olyi ligasida qatnasha boshladim.

Oilamizni shaxmatchilar oilasi, deyishadi. Bizing bo'sh vaqtimiz va xush vaqtimiz ham shaxmatdir. Albatta, mening bunday yutuqlarga erishishimda onamning beqiyos xizmatlari bor. Musobaqlarga puxta tayyorlanishimga sabab, o'z vaqtida ovqatlanishim, yana, keksa buvijonim duolarining qudrati ham bor. Ayniqsa, Chexiyada o'tadigan an'anaviy xalqaro shaxmat festivalida buvum duosi meni qo'llagan. Rossiyadagi xalqaro turnirlarning birida mutloq g'olibligim uchun FIDE (xalqaro

shaxmat uyushmasi) sport ustasi, degan unvoni olganman. Yaqinda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga tafsiya etishganida, boshim ko'klarga yetdi.

Menga Fransiya, Italiya va Armanistonda bo'lib o'tgan jahon championatlari katta maktab vazifasini o'tadi. Mening hayotlarida tanlagan yo'lim – shaxmat. Yaqinda Turkiyada bo'lib o'tgan jahon championati bellashuvlarda ham ishtirot etdim. Yurtimizga bronza medali bilan qaytdim. Maqsadim – murabbiylarim yordamida mashg'ulotlar sonini ko'paytirish va onam aytganlaridek, o'zimga bo'lgan ishonchimni yo'qotmaslik...

Ha, shaxmatsevar ukajonlar! Darvoqe, shaxmatdagi yutuqlarim, izlanishlarim zoye ketayotgani yo'q. Yurtimizda yurtboshipmizning yoshlarga mehr-muruvvati bisyor. Bu kuchdan zavqlanib uch bosqichli-mamlakatimiz sport musobaqlarida adolat, tinchlik, totuvlik rishtalarini mahkamroq bog'layapmiz. Men hozir Jizzax politexnika institutida tahsil olayapman. Yosh sportchilarimizga maslahatim – sportning buyuk yo'lini tanlagan bo'lsangiz, aslo mashg'ulotlardan charchamang. Axir tinimsiz mehnatning ortidan sizni g'alabani qonchlar kutmoqda.

BUGUNNING



«YANGI AVLOD» LARI

Musobek Yoqubov 11 yoshda. Xorazm viloyatidagi 24-ixtisoslashtirilgan umumi o'rta ta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi.

«Yangi avlod - 2007» bolalar ijodiyoti festivali, xalq cholg'u asboblari yo'naliishi g'olib. Kitob o'qishini yoqtiradi. Musiqaga bo'lgan qiziqishi sababli, o'zi sevgan asbobda kuy chalishni, musiqaga bag'ishlagan ko'rsatuvarlar, dasturlarni tomosha qilishni yaxshi ko'radi.

Sevimli qo'shiqchisi: Bekjon Otajonov.

Sport turi: kurash.

Yaxshi ko'rgan taomi: osh.

Yoqtirgan rangi: pushti.

Ezgu tilagi: mashhur doirachi bo'lib, xalqning hurmatini qozonish. Rassomchilik sohasini egallab, ingliz va rus tillarida erkin so'zlashishni o'rganish.

«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalidagi ishtiroki va g'oliblikni qo'lga kiritgani uning hayotidagi ilk odim qadamidir. Endi o'z ustida yana-da ko'proq ishlab, bundan ham yuksakroq g'alabalarini qo'lga kiritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

OCHIQ DARS

Toshkent tumanidagi 23-umumi o'rta ta'lim maktabida mehnat fanidan ochiq dars, seminar mashg'ulotlari o'tkazildi. Milliy hunarmandchilik hamda kashtachilik sirlarini o'rganish borasida tashkil etilgan ochiq dars davomida o'qitishning yangi, noan'anaviy uslublaridan, shuningdek, videoadarsliklardan foydalanildi.

Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan «Yoshlar bog'i» maketi tafsinga sazovor bo'ldi.

Ota-bobolarimizdan qolgan an'anani davom ettirish, ularni yosh avlodga o'rgatish, milliy hunarmandchiligidan tiklash oliy maqsadimiz, - deydi Xotin-qizlar qo'mitasi raisi, yoshlarni kasb-hunarga yetaklovshi Surayyo opa Mirzaahmedova.



BU AJIB DUNYO

Kenguru 90 kilogramm vaznga ega bo'lishiga qaramay, har sakrashda 9 metr masofani ishg'ol etadi.

O'rtacha kattalikdagagi oq akula tishlaganida, uning har bir tishining bosim kuchi 1 sm² ga 3 tonna og'irlikni tashkil etadi.

Och bo'ri bir o'tirishda 10 kilogramm go'sht yeyishi mumkin. Garchi uning kundalik ehtiyoji 2 kilogrammni tashkil etsa-da...

Fil bir daqiqada 10 marta nafas olib chiqaradi, sichqonlar esa 200 marta.

Qovoqari dam olmasdan 320 kilometr masofagacha uchib borishi mumkin.


Uxlayotgan odam tanasining uzunligi bedor holatdagiga nisbatan yarim santimetr uzun bo'ladi.

Osiyo yovvoyi qoramolining suri pushti rangda bo'lar ekan.

Janubiy Koreyada familiyasi bir xil bo'lgan yoshlar turmush qurishi ta'qiqlangan.

Insонning son suyagi betondan qattiq. U tik holatda bemalol yengil avtomobilni ko'tara oladi.

AYLANMA SKANVORD



Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga

qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va
sahifalovchi:
Elyor
ESHCHONOV
Navbatchi:
Axtamkul
KARIM

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMU Bosh
muhamm o'rinnbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muhamm o'rinnbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks: (99871) 244-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 53523
Buyurtma N: J 5145

Eng katta boylik

Aziz muxlisim!

Bugun sen bilan salomatlik haqida suhbatlashishni lozim topdim. Chunki baxtga, eng avvalo, sog'liq orqali erishiladi.
Baxtli bo'lising uchun ozgina yordamim tegsin, deyman-da, ukajon!
Xo'sh, sog'liq haqida donolar nimalar deyishgan?
So'z mulkinig sultonni Alisher Navoiy bobongiz bu xususda shunday lutf etganlar:
Izzat tilasang, kam de,
Sihat tilasang, kam ye.

Allergiyadan ham ehtiyyot bo'lisingni tavsiya etaman. Uy changi, gilam, kiyim-kechak, zax uylar, suvaraklar va boshqa ifloslangan narsalar shu kasallikni keltirib chiqaradi.

Abu Ali ibn Sino allergiya kasalini davolashda yalpiz qaytanmasining anjir bilan aralashtirib iste'mol qilishni tavsiya etadi.

Allergiya boshlanish paytida qaynatib pishirilgan sholq'omning yaxshi samara berishini ham ta'kidlab o'tgan.

Inson tanasida biror modda yetishmasligi yoki modda almashinuvining buzilishi tufayli yuz, qo'l va bo'yинг sepkil toshadi.

Achchiq bodomni maydalab, sharobga qo'shib yuvilsa, sepkil yo'qoladi.
Limon suvi ham sepkilni ketkazadi.
Piyoz urug'i dog'ni yo'qotadi.
Petrushka suvi ham yuzdag'i sepkil va dog'larni ketkazishda yaxshi samara beradi.

Xullas, ukajon, bilki, sog'lig'ing o'zing uchun davlat. Bu davlatni asray bil. U oilingga, millatingga, yurtingga ham eng zarur va eng kerakli boylikdir.
SH.NIYANSHIXOVA tayyorladi